

**TUPROQSHUNOSLIK VA AGROKIMYOVIY TADQIQOTLAR
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.25/30.12.2019.Qx/B.43.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**TUPROQSHUNOSLIK VA AGROKIMYOVIY TADQIQOTLAR
INSTITUTI**

MALLAYEVA DILAFRUZ ABDIXOLIQ QIZI

**SUG‘ORILADIGAN TIPIK BO‘Z TUPROQLARDA OG‘IR
METALLARNING TARQALISHI VA AYRIM QISHLOQ XO‘JALIK
EKINLARIDA TO‘PLANISHI (Kitob tumani tuproqlari misolida)**

06.01.04-«Agrokimyo»

**Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent–2025

**Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
сельскохозяйственным наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
agriculture sciences**

Mallayeva Dilafruz Abdixoliq qizi

Sug‘oriladigan tipik bo‘z tuproqlarda og‘ir metallarning tarqalishi va ayrim qishloq xo‘jalik ekinlarida to‘planishi (Kitob tumani tuproqlari misolida) 3

Маллаева Дилафруз Абдихолик кизи

Распределение тяжелых металлов в типичных орошаемых сероземах и накопление их в некоторых сельскохозяйственных культурах (на примере почв Китобского района) 21

Mallayeva Dilafruz Abdikhalik kizi

Distribution of heavy metals in typical irrigated gray soils and their accumulation in some agricultural crops (on the example of soils of the Kitob district) 41

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 45

**TUPROQSHUNOSLIK VA AGROKIMYOVIY TADQIQOTLAR
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.25/30.12.2019.Qx/B.43.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**TUPROQSHUNOSLIK VA AGROKIMYOVIY TADQIQOTLAR
INSTITUTI**

MALLAYEVA DILAFRUZ ABDIXOLIQ QIZI

**SUG'ORILADIGAN TIPIK BO'Z TUPROQLARDA OG'IR
METALLARNING TARQALISHI VA AYRIM QISHLOQ XO'JALIK
EKINLARIDA TO'PLANISHI (Kitob tumani tuproqlari misolida)**

06.01.04-«Agrokimyo»

**Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent–2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/Qx1250 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar institutida bajarilgan.

Falsafa doktori (PhD) avtoreferati uchta tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar institutining veb-sahifasida (<http://www.soil.uz>) va «ZiyoNET» Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Karimov Xusniddin Nagimovich

qishloq xo'jaligi fanlari doktori, katta ilmiy xodim

Rasmiy opponentlar:

Ibragimov Nazir Madrimovich

qishloq xo'jalik fanlari doktori, professor

Mahammadiyev Samad Qilichevich

qishloq xo'jaligi fanlari falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Toshkent davlat agrar universiteti

Dissertatsiya himoyasi Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar instituti huzuridagi DSc.25/30.12.2019.Qx/B.43.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «19» noyabr soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100179, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Qamarniso ko'chasi, 3-uy. E-mail: info@soil.uz).

Dissertatsiya bilan Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (88-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100179, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Qamarniso ko'chasi, 3-uy.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «04» noyabr kuni tarqatildi.

(2025-yil «04» noyabr dagi 11-raqamli reestr bayonnomasi).



Sh.M.Bobomurodov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, b.f.d., katta ilmiy xodim

J.M.Ko'ziyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy xotibi, q.x.f.f.d., katta ilmiy xodim

N.Yu.Abduraxmonov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, b.f.d., professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda «dunyo miqyosida qishloq xo‘jaligida foydalaniladigan yerlarining 14-17 foizi turli darajada og‘ir metallar bilan ifloslangan bo‘lib, bunday yerlar taxminan 242 million gektarni tashkil etadi va u yerlarda, asosan kadmiy (Cd), xrom (Cr), arsenik (As), nikel (Ni), mis (Cu), qo‘rg‘oshin (Pb), kobalt (Co) kabi elementlarning kamida bittasi bilan ifloslangan»¹. Shuning uchun ham sug‘oriladigan tuproqlar tarkibidagi og‘ir metallar tarqalishi va ularning qishloq xo‘jaligi ekinlari, xususan, pomidor va bodring tarkibidagi akkumulyatsiyasini aniqlash dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Dunyo ekologik holatidan kelib chiqib, tuproqlarning gumus va oziqa elementlari bilan ta‘minlanishi, toksikantlar bilan ifloslanishi, ayniqsa, og‘ir metallarning inson salomatligiga salbiy ta‘sir etuvchi harakatchan shakllarini o‘rganish, toksikantlarning qishloq xo‘jaligi mahsulotlarida to‘planishi bo‘yicha bir qator ustuvor yo‘nalishlarda fundamental va amaliy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada tuproqning agrokimyoviy holati hamda tuproq qatlamlari va iste‘mol mahsulotlarida og‘ir metallarning harakatchan shakllarining akkumulyatsiyasiga (to‘planishiga) doir ilmiy-tadqiqotlarga katta e‘tibor qaratilmoqda.

Respublikamiz qishloq xo‘jaligi iqtisodiyotning eng muhim tarmoqlaridan biri hisoblanib, davlatimizning agrar siyosati ushbu tarmoqni yuqori unumli va rentabelli bo‘lishini ta‘minlash, eksportbop qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishda tuproqning agroekologik holatiga qaratilgan ilmiy-amaliy tadqiqotlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. «O‘zbekiston-2030» strategiyasida belgilangan «...tuproq ifloslanishi monitoringini yo‘lga qo‘yish» hamda «... agrokimyoviy tahlil laboratoriyalari tomonidan tuproq tahlillari asosida agrokimyoviy xaritagrammalar ishlab chiqish»² bo‘yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Shuning uchun ham qishloq xo‘jaligida foydalanib kelinayotgan maydonlarni agrokimyoviy holatini aniqlash, harakatchan shakldagi og‘ir metallar bilan ifloslanishi, toksikantlarni kam o‘zlashtiruvchi ekinlarni aniqlash va ekologik xaritalar asosida joylashtirish orqali ekologik toza mahsulot yetishtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-iyundagi PF-5742-son «Qishloq xo‘jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni, 2024-yil 21-fevraldagi PF-37-son «Barqaror iqtisodiy o‘sish orqali aholi farovonligini ta‘minlash yo‘nalishi bo‘yicha 2024-yilga mo‘ljallangan» amaliy tadbirlar rejasining 54-maqsadida ko‘rsatilgan Qishloq xo‘jaligida hosildorlik va rentabellik darajasini keskin oshirish hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

¹<https://www.theguardian.com/environment/2025/apr/17/about-15-world-cropland-polluted-toxic-metals-say-researchers>

²<https://lex.uz/ru/docs/-6600413>

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining V. «Qishloq xoʻjaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yoʻnalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning oʻrganilganlik darajasi. Ogʻir metallarning sugʻoriladigan tuproqlarda tarqalishi, ularning toʻplanishi, oʻsimlik organlarida bioakkumulyatsiyasi boʻyicha xorijlik olimlaridan H.Ali, S.Ali, M.A.Altaf, K.S.Balkhair, M.Basu, A.K.Guha, L.Ray, R.Dizaji, K.Abbasi, K.M.Abdi, N.Gupta, K.K.Yadav, V.Kumar, S.Prasad, M.M.Cabral-Pinto, M.F.Hafiz, L.Ma, A.A.Hamad, K.H.Alam, H.S.Alrabie, M.S.Jahan, S.Guo, A.R.Baloch, J.Sun, S.Shu, Y.Wang, respublikamiz olimlaridan X.T.Riskieva, Sh.T.Xoliqulov, X.N.Karimov, Z.A.Jabborov, X.T.Ortiqova, R.R.Riskiev, S.A.Nizamov, Z.Z.Uzakov, J.P.Xushmurodov va boshqa olimlar tomonidan ilmiy-tadqiqotlar olib borilgan. Lekin, pomidor va bodring ekinlarida ogʻir metal ionlarining bioakkumulyatsiyasini oʻrganishga qaratilgan ilmiy-tadqiqotlar yetarlicha olib borilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot rejalari bilan bogʻliqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining FZ-201906147-raqamli «Qishloq xoʻjaligida foydalaniladigan ekin maydonlarining toksik moddalar bilan zaharlanish darajasidan kelib chiqib 3D kartasini tuzish va ekologik toza mahsulotlar yetishtirish texnologiyasini ishlab chiqish» (2020-2023-yy.) mavzusidagi amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Kitob tumanida sugʻoriladigan tipik boʻz tuprogʻida ogʻir metallarning tarqalishi, pomidor va bodring ekinlarida ularning bioakkumulyatsiyalanishi hamda hududga mos (maqbul) ekin turini tanlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Kitob tumanida tarqalgan sugʻoriladigan tipik boʻz tuproqlarning mexanik tarkibi va agrokimyoviy xossalarini aniqlash;

pomidor va bodring ekinlarida dala tajribasini olib borish;

sugʻoriladigan tipik boʻz tuproqlarning genetik qatlamlarida harakatchan shakldagi ogʻir metallarning tarqalishini aniqlash;

sugʻorish suvi tarkibidagi toksik elementlar miqdorini aniqlash;

suniy ifloslangan tuproqlarda pomidor va bodring ekinlarini yetishtirishda hosildorlik koʻrsatkichlarini aniqlash;

sugʻoriladigan tipik boʻz tuproqning agrokimyoviy va toksik elementlar bilan ifloslanish boʻyicha kortogrammalari tuzishni va hududga mos ekin turlarini tanlash.

Tadqiqotning obyekti Kitob tumanida tarqalgan sugʻoriladigan tipik boʻz tuproq, toksik elementlar (Cr, Ni, Cd, Co, Cu, Pb, Zn), pomidorning «Toshkent tongi», bodringning «Orzu» navlari, mineral oʻgʻitlar hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti sugʻoriladigan tipik boʻz tuproqning agrokimyoviy xossa-xususiyatlari, pomidor va bodring, sugʻorish suvi, toksik taʼsir etuvchi Cr,

Ni, Cd, Co, Cu, Pb, Zn elementlar hamda ekologik va agrokimyoviy kartogrammlar hisoblanadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqotlar agrokimyovo va tuproqshunoslikda umumqabul qilingan dala, laboratoriya va kameral ishlarning standart usullari bo'yicha amalga oshirilgan: kimyoviy tahlillar «Агрохимические методы исследования почв, растений и удобрений», «Методические рекомендации по мелиорации солонсов и учету засоленных почв», «Методические указания по определению тяжелых металлов в почвах сельхозугодий и продукции растениеводства», «Санитарные правила и нормы (СанПиН), гигиенические нормативы и перечень методических указаний и рекомендации по гигиене питания», Mikrovegetatsion dala tajribalarini o'tkazish hamda «Миниатюра» Нейбауер tajribasi Голодковский tomonidan qayta ishlangan laboratoriya tahlillari asosida olib borilgan. Olingan ma'lumotlarning matematik-statistik tahlili В.А.Доспеховning «Методика полевого опыта» uslubiy qo'llanmasi va «Microsoft Excel» kompyuter dasturi yordamida amalga oshirildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

tuproq profili bo'ylab Cr, Ni, Cd va Pb kabi og'ir metallar hamda mikroelementlar (Co, Cu, Zn)ning tarqalishi ($Pb \rightarrow Cu \rightarrow Co \rightarrow Cd \rightarrow Ni$) suv-agrokimyovo (so'rilishi) bilan bog'liqligi aniqlangan;

sug'orish suvlari tarkibidagi toksik elementlar konsentratsiyasi va ularning tuproqdan o'simlikga o'tishida ($Pb \rightarrow 2,80-2,83$, $Cu \rightarrow 1,44-1,45$, $Co \rightarrow 1,23-1,35$, $Cd \rightarrow 0,98-1,50$, $Ni \rightarrow 1,05-1,10$ mg/l) bog'liqlik mavjudligi isbotlangan;

pomidorning «Toshkent tongi», bodringning «Orzu» navlari qismlarida og'ir metallarning bioakkumuliyatsiyasi darajasini o'rganilgan va ularning turli qismlarda (ildiz, poya, barg va meva) to'planishi aniqlangan;

og'ir metallar bilan ifloslangan tuproqlarda pomidor va bodring hosildorligi ko'rsatkichlari asosida ularning toksik ta'sirga chidamliligi va hosil sifatiga ta'siri aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Qashqadaryo viloyati Kitob tumani «Qishliq» massivi sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlarining 1:5000 masshtabli agrokimyoviy kartogrammlari ishlab chiqilgan;

«Qishliq» massivining 72,7 ga sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlarining 1:5000 masshtabli Cu, Pb, Cd va Cr elementlarining ekologik kartalari ishlab chiqilgan;

sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlarning og'ir metallar bilan ifloslanishini oldini olish va tuproqdagi miqdorini kamaytirish hamda ifloslanish darajasiga ko'ra pomidor va bodring ekinlarini joylashtirishga doir takliflar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining laboratoriya va dala tajribalari asosida sohada umum qabul qilingan usullar orqali bajarilganligi, olingan natijalarning ilmiy asoslanganligi, nazariy va amaliy natijalarning bir-biriga mos kelishi, TATIning maxsus tashkil etilgan aprobatsiya komissiyasi tomonidan har yili ijobiy baholanganligi, qo'yilgan vazifalarga hamda tuproqning agrokimyoviy xossalari kompleks yondoshilganligi, ma'lumotlarga matematik-statistik ishlov berilganligi, olingan ma'lumotlarni respublika va xalqaro konferensiyalarda muhokama qilinganligi, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan

va innovatsion vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan e'tirof etilgan nufuzli xorijiy va mahalliy jurnallarida chop etilganligi hamda natijalarning amaliyotga joriy qilinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, Kitob tumani sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlarida Cr, Ni, Cd va Pb kabi og'ir metallar hamda Co, Cu va Zn mikroelementlarining tuproq profili bo'ylab tarqalishi va ularning suv-agrokimyoviy xususiyatlar bilan uzviy bog'liqligi aniqlanib, sug'orish suvlari tarkibidagi toksik elementlar konsentratsiyasi bilan ularning tuproqdan o'simliklarga o'tish jarayonidagi o'zaro bog'liqligi, pomidor va bodring ekinlarida og'ir metallarning bioakkumulyatsiyalanish xususiyatlari aniqlanganligi, ularning ildiz, poya, barg va mevaga taqsimlanish qonuniyatlari belgilandi hamda toksikantlarga chidamlilik darajasi o'rganilib, og'ir metallarning tuproq-suv-o'simlik tizimidagi migratsiyasi va bioakkumulyatsiyasi bo'yicha ekologik qatorlar ishlab chiqilganligi, ushbu ilmiy natijalarning agrokimyoviy kuzatuvlarini kartogrammalarda kiritish, ekinlarning toksikantlarga chidamliligini baholash va ekologik xavfsiz mahsulot yetishtirishning ilmiy asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlarda 1:5000 masshtabli agrokimyoviy kartogrammalar va Cu, Cr, Cd, Pb elementlari bo'yicha ekologik kartalarning ishlab chiqilganligi, ushbu kartalar tuproqning og'ir metallar bilan ifloslanish darajasini aniqlash, agrotexnik tadbirlarni to'g'ri rejalashtirish va ekinlarni joylashtirish imkonini beradi, fermer xo'jaligining sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlarda mineral o'g'itlarni maqbul me'yor va muddatlarda qo'llash orqali tuproqlarni agrokimyoviy holatini yaxshilashda, toksikantlar bilan ifloslanish holatiga ko'ra kimyoviy elementlarni kam bioakkumulyatsiya qiluvchi ekinlarni tanlab ekish, tuproqlarning ifloslanishini oldini olishga asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Sug'oriladigan tipik bo'z tuproqning agroekologik holati, pomidor va bodring ekinlarida og'ir metallarning to'planishi bo'yicha olingan ilmiy - amaliy natijalar asosida:

Kitob tumani «Qishliq» massivining «Xiromiddin Nurullayevich», «Varganza bog'ishamol tomorqa xizmati MChJ» va «Abdurasulov Abduqayum Djumayevich» fermer xo'jaliklarining 1:5000 masshtabli gumus, harakatchan fosfor va almashinuvchan kaliy bilan taminlanganlik darajasiga ko'ra agrokimyoviy kartogrammalari ishlab chiqilgan va 72,7 gektar maydonga amalyotga joriy etilgan (Qishloq xo'jalik vazirligi Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2024-yil 8-oktabrdagi 05/05-02-870-son ma'lumotnomasi). Natijada, sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlarning gumus va oziqa elementlari bilan ta'minlanganlik holatiga ko'ra o'g'it me'yori va muddatlarini to'g'ri belgilash, mineral o'g'itlar samaradorligini oshirish, agrotexnik tadbirlarni to'g'ri amalga oshirish orqali agrokimyoviy holatini yaxshilash imkonini bergan.

Qashqadaryo viloyati Kitob tumani «Qishliq» massivining «Xiromiddin Nurullayevich», «Varganza bog'ishamol tomorqa xizmati MChJ» hamda «Abdurasulov Abduqayum Djumayevich» fermer xo'jaligida tarqalgan tuproqlarning 1 metr qalinligida harakatchan shakldagi xrom, kadmiy, qo'rg'oshin hamda mis elementlari bilan aks ettiruvchi 1:5000 masshtabli ekologik kartasi

tuzilgan va Kitob tumani qishloq xo‘jaligi bo‘limida amaliyotga joriy etilgan (Qishloq xo‘jalik vazirligi Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2024-yil 8-oktabrdagi 05/05-02-870-son ma‘lumotnomasi). Natijada, mazkur ekologik karta fermer xo‘jaligining sug‘oriladigan tipik bo‘z tuproqlarida toksikantlar bilan ifloslanish holatiga ko‘ra kimyoviy elementlarni kam bioakkumulyatsiya quluvchi ekinlarni tanlab ekish, tuproqning ifloslanganlik holatini asoslash va tuproqning ifloslanishini kamaytirishga qaratilgan tadbirlarni o‘tkazilishiga imkon bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari jami 5 ta, jumladan, 3 ta xalqaro, 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 9 ta ilmiy ish chop etilgan, shundan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarni chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan, 3 tasi respublika, 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, beshta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiya hajmi 119 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o‘tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan. Tadqiqot maqsadi, vazifalari, obyekti va predmetlari tavsiflangan. O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Tuproqlarning agroekologik holati, tuproq va o‘simliklarda toksik elementlar akkumulyatsiyasi (adabiyotlar sharhi)**» deb nomlangan birinchi bobida, mamlakatimiz va xorijlik olimlar tomonidan olib borilayotgan ishlar natijalari tahlil qilingan va atroflicha yoritilgan. Tuproq agroekologik holatini o‘rganish va sabzavot-poliz ekinlarida og‘ir metallarning bioakkumulyatsiyasi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar ochib berilgan. Bunda, olimlar tomonidan jahon miqyosida olib borilgan tadqiqotlarda og‘ir metallarning (Cr, Ni, Cd, Pb, Co, Cr, Zn) tuproq va o‘simliklarda to‘planishi, ularning natijalari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Tadqiqotning obyekti va izlanishlarning olib borilishi tartibi**» deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot o‘tkazilgan joyning tabiiy-iqlim sharoitlari, geologik, geomorfologik, iqlim sharoitlari, o‘simlik dunyosi va inson faoliyatining ta‘siri, tadqiqot obyekti va tadqiqot usullari to‘g‘risidagi batafsil ma‘lumotlar keltirilgan.

Tadqiqotlar Kitob tumanidagi «Xiromiddin Nurillayevich» f/x, «Abdurasulov Abduqayum Djumayevich» f/x, «Varganza bog‘ishamol tomorqa xizmati MChJ» ning fermer xo‘jaligining sug‘oriladigan tipik bo‘z tuproqlarida olib borilgan,

tadqiqotlar davomida Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqot institutida umum qabul qilingan standart uslublardan foydalanilgan.

Laboratoriya tajribasi 30×22 sm boʻlgan gul tuvaklarda 5 kg tuproqlar olib borildi.

Laboratoriya tajribalar uchun barcha tanlab olingan toksik elementlar (Cr, Ni, Cd, Co, Pb, Cu, Zn) tuzlari bilan sunʼiy ravishda ruxsat etilgan miqdor (REM) dan 3 va 5 barobar koʻp boʻlgan kimyoviy tuzlar bilan ifloslantirildi (1-jadval).

1-jadval

Laboratoriya tajribasi uchun qabul qilingan tuzlar miqdori

№	Toksikantlar	1-REM uchun mg/kg	3-REM uchun mg/kg	5-REM uchun mg/kg
1	CoSO ₄ * 7H ₂ O	23,849	71,5	119,2
2	CuSO ₄	11,802	35,4	59,0
3	NiSO ₄ *7H ₂ O	19,141	57,4	95,7
4	Pb (NO ₃) ₂	9,591	28,8	47,9
5	ZnSO ₄ *7H ₂ O	101,157	303,5	505,7
6	CdCl ₂	0,815	2,4	4,0
7	K ₂ CrO ₄	22,408	67,2	112,0
8	1+7 = kompleks taʼsir			

Izoh. 1+7 kompleks taʼsirlar uchun 3 hamda 5 barobarda aniqlangan tuzlarning barchasi variant tuproqlariga qoʻshilgan

Dala va laboratoriya sharoitida pomidor va bodring ekinlari makro va mikro elementlarning tuproqdagi boshlangʻich holati, mineral oʻgʻitlar bilan hamda sunʼiy ifloslantirishdan keyingi holatlari aks etgan (Kitob tumanidan keltirilgan tuproqlar sunʼiy ravishda ifloslantirilmagan) (2-jadval).

2-jadval

Tajriba variantlari (Pomidor va bodring uchun)

№	Variantlar (4 qaytariqda)
1	Tuproq (nazorat)
2	Tuproq+(pomidor uchun N ₁₆₀ P ₁₂₀ K ₈₀ , bodring uchun N ₁₅₀ P ₁₀₀ K ₇₅) (Fon) + oʻ
3	Fon+Cr REM (3 barobar koʻp) + oʻ
4	Fon+Cr REM (5 barobar koʻp) + oʻ
5	Fon+ Ni REM (3 barobar koʻp) + oʻ
6	Fon+ Ni REM (5 barobar koʻp) + oʻ
7	Fon+ Cd REM (3 barobar koʻp) + oʻ
8	Fon+ Cd REM (5 barobar koʻp) + oʻ
9	Fon+ Co REM (3 barobar koʻp) + oʻ
10	Fon+ Co REM (5 barobar koʻp) + oʻ
11	Fon+ Pb REM (3 barobar koʻp) + oʻ
12	Fon+ Pb REM (5 barobar koʻp) + oʻ
13	Fon+ Cu REM (3 barobar koʻp) + oʻ
14	Fon+ Cu REM (5 barobar koʻp) + oʻ
15	Fon+ Zn REM (3 barobar koʻp) + oʻ
16	Fon+ Zn REM (5 barobar koʻp) + oʻ
17	Fon+kompleks taʼsir (3 barobar koʻp) + oʻ
18	Fon+kompleks taʼsir (5 barobar koʻp) + oʻ

Qashqadaryo viloyati Kitob tumanida joylashgan «Xiromiddin Nurillayevich» f/x, «Abdurasulov Abduqayum Djumayevich» f/x, «Varganza bog‘ishamol tomorqa xizmati MChJ» ning jami 72,7 gektar maydonlarida tarqalgan tipik bo‘z tuproqlarida hamda dala va laboratoriya tajribalarining olib borilishi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar bayon etilgan.

Dala tajriba variantlari 4 qaytariqda olib borildi. Bunda pomidorning «Toshkent tongi», bodringning «Orzu» navlari tanlandi.

Dala sharoitida pomidor va bodring ekinlari bilan tajribalar o‘tkazish uchun «Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ITI» tomonidan ishlab chiqilgan «Qashqadaryo viloyatida sabzavot, poliz ekinlari va kartoshka ekinlaridan mo‘l va sifatli hosil etishtirish agrotexnologiyasi» bo‘yicha tavsiyalar asosida pomidor va bodring 90x30-1 sxemada 2 ta variant va 4-qaytariqda ekilgan bo‘lib, har ikki qatorni o‘rtasi pushta qilingan. Eni 3,6 m, bo‘yi 20 m, $3,6 \times 20 = 72 \text{ m}^2$, bir variantning bitta qaytarig‘i maydoni 72 m^2 bo‘lib, ikkita variantning maydoni $72,0 \times 2 = 144 \text{ m}^2$, to‘rt qaytariqning maydoni $144,0 \times 4 = 576,0 \text{ m}^2$ ni tashkil etdi. Tajriba ikki turdagi o‘simliklarda o‘tkazildi. Ikkala ekinlarning maydoni 1152 m^2 ni tashkil etdi (3-jadval).

3-jadval

Pomidor va bodring ekinida olib boriladigan dala tajriba tizimi

Variantlar	Qo‘llaniladigan mineral o‘g‘it me‘yorlari	Qo‘llash muddatlari			
		Ekishdan oldin	chin barg davrida	Gullash davrida	mevalash davrida
Pomidor ekinida olib boriladigan dala tajriba tizimi					
1	Nazorat	-	-	-	-
2	N ₁₆₀ P ₁₂₀ K ₈₀	P ₈₅ K ₆₀	N ₂₀	N ₉₀ P ₃₅ K ₂₀	N ₅₀
Bodring ekinida olib boriladigan dala tajriba tizimi					
1	Nazorat	-	-	-	-
2	N ₁₅₀ P ₁₀₀ K ₇₅	P ₇₅ K ₅₅	N ₁₆	N ₆₇ P ₂₅ K ₂₀	N ₆₇

Dissertatsiyaning «**Hudud tuproqlarining umumiy tavsifi**» deb nomlangan uchinchi bobi «*Sug‘oriladigan tipik bo‘z tuproqlarining mexanik tarkibi*» deb nomlangan 3.1-§ da tuproqlarning mexanik tarkibi ma‘lumotlari keltirilgan bo‘lib, «Varganza bog‘ishamol tomorqa xizmati MChJ», «Xiromiddin Nurullayevich» va «Abdurasulov Abduqayum Djumayevich» fermer xo‘jaliklarining sug‘oriladigan tipik bo‘z tuproqlari mexanik tarkibiga ko‘ra, asosan o‘rta qumoqlardan, ayrim kesmalari og‘ir qumoqlardan, 16-kesma butun profil bo‘yicha bir xil (bir jinsli) litologik tuzilishdagi o‘rta qumoqlardan iborat.

Ushbu bobning «*Tuproqlarning agrokimyoviy xossalari*» deb nomlangan 3.2-§ da, tuproqlarning gumus, umumiy va harakatchan NPK elementlari bilan ta‘minlanishi hamda uglerodning azotga bo‘lgan nisbatlari (C:N) va karbonatlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlar keltirildi.

Kitob tumani sug‘oriladigan tipik bo‘z tuproqdagi gumus miqdori 0,230-1,260 foizgacha bo‘lgan oraliqda tebranib, amaldagi klassifikatsiyaga ko‘ra, gumus bilan kam va o‘rtacha ta‘minlangan. Umumiy azot miqdori 0,019-0,085%, fosfor 0,091-0,518%, yalpi kaliy miqdori 0,52-1,57 % oraliqda tebranib turadi. Uglerodning umumiy azotga bo‘lgan nisbati C:N 6,2-8,9 ga teng. Harakatchan fosfor miqdori 7,3-33,9 mg/kg, almashinuvchi kaliy miqdori 156-386 mg/kg

miqdorlarida tebranib, harakatchan fosfor miqdoriga ko'ra, juda kam, kam va o'rtacha ta'minlangan tuproqlar guruhini tashkil etadi, almashinuvchan kaliy miqdoriga ko'ra esa kam, o'rtacha ta'minlanganligi kuzatildi.

Gumus va harakatchan shakldagi NPK bilan ta'minlanish darajasiga ko'ra 1:5000 masshtabli agrokimyoviy kartogrammasi ishlab chiqildi.

«Tuproqlardagi oson eruvchi tuzlar miqdori, sho'rlanish darajasi va tiplarining harakatchan og'ir metallarga bog'liqligi» deb nomlangan 3.3-§ da tuproqning 0-200 sm qatlamlaridagi tuzlar miqdori keltirilgan bo'lib, tuproqlar kuchsiz minerallashgan grunt suvlarining chuqur joylashganligi, tog' oldi hududlarining yaxshi zovurlashganligi, re'lefning kesishganligi va buzilganligi bois, tuproqlar, asosan sho'rlanmagan, suvda oson eruvchi tuzlarning umumiy miqdori tuproq profilida 0,115-0,290 foizgacha miqdorlarni tashkil etdi. Faqat ayrim kesmalardagina tuzlar miqdori 0,300-0,535% miqdorlarda kuzatildi.

15-kesma amalda sho'rlanmagan, tuproq profilidagi tuzlar miqdori 0,135-0,290 foizni tashkil etdi. 16-17-kesmalarda faqat bittadan tuzli gorizont 0,488-0,443%, 13-14-kesmalarda esa ikkitadan tuzli gorizontlar uchraydi va ular 0,415-0,520, 0,345-0,535% oralig'ida tebranib turdi. 0-100, 0-200 sm lik qatlamlardagi umumiy va zaharli tuzlar zaxirasi hisoblandi.

Dissertatsiyaning **«Tuproq va sug'orish suvlaridagi og'ir metallar miqdori»** deb nomlangan to'rtinchi bobning «Sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlarda toksik ta'sir etuvchi elementlarning miqdori» deb nomlangan 4.1-§ da tuproq qatlamlarida harakatchan shakldagi mikroelementlar hamda og'ir metallarning akkumulyatsiyasi keltirilgan.

Kadmiy (Cd) ning harakatchan shakli uchun REM 0,5 mg/kg qilib belgilangan bo'lib, 14-kesmaning 150–200 sm chuqurlikdagi qatlamida REMdan 1,34 martaga yuqori miqdor aniqlandi. 16–18-kesmalarda 80–100 sm qatlamlarda Cd 0,60–0,84 mg/kg bo'lib, bu qiymatlar REMdan 1,20–1,68 martaga ortiq ekanligi qayd etildi. Bu holat Cd elementining ayrim kesmalarda pastki qatlamlarga siljib, akkumulyatsiyalanish xususiyatiga ega ekanligini ko'rsatdi.

Nikel (Ni) ning harakatchan shakli uchun REM 4 mg/kg deb qabul qilingan. 13-kesmada haydov qatlamdagi 4,02 mg/kg miqdor pastki qatlamlarda 4,43 mg/kg gacha ortib, REMdan 1,11 martaga yuqoriligini ko'rsatdi. 18-kesmada esa 50–80 sm qatlamda 3,78 mg/kg bo'lgan Ni miqdori 150–200 sm qatlamda 4,96 mg/kg gacha oshib, REMdan 1,24 martaga yuqori natija qayd etildi. Bu esa Ni elementining ham pastki qatlamlarda ko'proq akkumulyatsiyalanishini ko'rsatdi.

Qo'rg'oshin (Pb) ning harakatchan shakli uchun REM 6 mg/kg qilib belgilangan. 13-kesma tuproqlarida Pb miqdori 8,00–10,05 mg/kg gacha bo'lib, REMdan 1,33–1,76 martaga yuqoriligi aniqlandi. Bu holat Pb elementining yuqori qatlamlarda nisbatan ko'proq to'planishini ko'rsatdi.

Sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlarda Cu miqdori REMdan yuqori bo'lishi aniqlandi. 14–16-kesmalarda mis 8,03–8,89 mg/kg gacha akkumulyatsiyalanib, REMdan 2,68–1,30 martaga yuqori bo'ldi. 13-kesmaning barcha qatlamlarida Cu ning ortishi qayd etilib, haydov qatlamda 8,67 mg/kg dan 80–100 sm chuqurliklarda 2,84 mg/kg gacha kamayish kuzatildi. Tadqiqotlar hududda uzoq yillar davomida uzumchilikda mis kuporasi qo'llanilishi natijasida Cu elementining tuproqda akkumulyatsiyalanganini ko'rsatdi.

Xrom uchun REM 6 mg/kg deb qabul qilingan. O'rganilgan tuproqlarda Cr eng yuqori ifloslanish darajasini ko'rsatdi. 13-kesmada haydov va haydov osti qatlamlarida Cr 25,09–28,30 mg/kg gacha bo'lib, REMdan 4,18–4,72 martaga ortiq ekani aniqlandi. 14-kesmada Cr 25,69–29,07 mg/kg bo'lib, pastki qatlamlarda 19,32 mg/kg gacha kamayishi qayd etildi. 16-kesmada 30–50 sm chuqurlikdagi qatlam eng yuqori ifloslanishni ko'rsatib, REMdan 5,06 martaga yuqori bo'ldi. O'rtacha hisobda 0–200 sm chuqurlikdagi tuproqlarda Cr REMdan 3,84 martaga yuqori miqdorda to'plangan.

Ushbu bobning «*Harakatchan shakldagi toksikantlar bilan tuproq ifloslanishning ekologik kartasi*» deb nomlangan 4.2-§. da «Qishliq» massivida tadqiqot olib borilgan tuproqlarning Cd, Cr, Pb va Cu elementlari bilan ifloslanish darajasi konturlar bo'yicha aniqlanib, ekologik xaritalar tuzildi.

Cd bilan kam ifloslangan hududlar 45,92 gektar bo'lib, shundan o'rtacha ifloslangan hududlar 13,43 gektarni tashkil etib, REMdan 1-2 barobar yuqori ekanligi aniqlandi. Pb bilan kam ifloslangan hudud 26,64 ga ni, Cu bilan ifloslanmagan tuproqlar 14,65 gani, kam ifloslangan tuproqlar esa 34,27 ga ni, o'rtacha ifloslangan (3-6 mg/kg) maydonlar 23,87 ga ni tashkil etdi. Massivda Cr ning taqsimotiga ko'ra jami 72,7 gektar maydonning 5,66 gektari kam ifloslangan, 7,92 ga maydon o'rtacha, 54,25 ga maydon esa kuchli ifloslangan. Hududning kuchli ifloslangan maydoni 54,25 ga ni tashkil etdi.

Bobning «*Sug'orish suvi tarkibida harakatchan toksikantlar miqdori*» deb nomlangan 4.3-§. da sug'orish suvlari tarkibidagi elementlar haqidagi ma'lumotlar keltirilgan bo'lib, suv tahlillarida ruxning REMdan oshmaganligi qayd etilgan. Yillar davomida suv tarkibida Cd miqdori $0,135 \pm 0,01$ mg/l ni tashkil etib, REMdan 1,35 martaga ortiq. Cu elementi esa (REM 0,1 mg/l) har ikki yilda ham $0,145 \pm 0,03$ mg/l ni tashkil etgan. Suv tarkibidagi Pb elementi REM 0,03 mg/l ni tashkil etdi. Sug'orish suvlari uchun ishlatilayotgan artizan suvining bir litrdagi uning o'rtacha miqdori $0,065 \pm 0,01$ mg/l ni tashkil etib, REMdan 2,16 martaga ortganligi aniqlandi.

Dissertatsiyaning «*Mineral o'g'itlarning pomidor va bodring hosildorligiga ta'siri*» deb nomlangan 4.4-§ da olib borilgan tadqiqot natijalar bo'yicha, pomidor va bodring ekinida mineral o'g'itlarning me'yori, quruq qoldiq, hosil miqdorlari, hamda iqtisodiy samaradorlik to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilgan.

O'tkazilgan dala tajribasida pomidor (N₁₆₀P₁₂₀K₈₀) va bodring ekinlarida (N₁₅₀P₁₀₀K₇₅) mineral o'g'it qo'llanganda nazorat variantga nisbatan qo'shimcha 37 s/ga hosil olindi. Bodring ekinida (N₁₅₀P₁₀₀K₇₅) mineral o'g'it qo'llanganda esa nazorat variantga nisbatan qo'shimcha 38 s/ga hosil olindi va ulardan olinadigan sof foyda aniqlandi. Olib borilgan tadqiqotlarda mineral o'g'itlarning ilmiy asoslangan me'yorlarda qo'llanishi pomidor va bodring ekinlarida agrokimyoviy hamda iqtisodiy samaradorlikni sezilarli oshirishini ko'rsatdi.

Dissertatsiyaning «**Pomidor va bodring o'simliklarida toksikantlar bioakkumulyatsiyasi**» deb nomlangan beshinchi bobida, laboratoriya va dala tajribalarida pomidor va bodring qismlarida mikroelementlar hamda og'ir metallarning to'planishi haqidagi ma'lumotlar bayon etilgan. «*Pomidor va bodring ekinlari organlarida toksikantlar bioakkumulyatsiyasi*» deb nomlangan 5.1-§. da pomidor ildizlari yillar davomida xrom bilan REMdan 3 barobar ortiq ifloslantirilgan 3-variantda 2,23-2,03-2,34 mg/kg, 5 barobar ifloslantirilgan


4-variantda 3,99-4,06-4,17 mg/kg bo'lib, REMlardan mos ravishda 11,13-10,16-11,68 martaga, 4-variantda esa 19,93-20,32-20,83 martaga oshgan.

Kompleks ifloslantirilgan variantlarda pomidor ildizlarida o'rtacha REMdan 5-variantda 3-yil davomida 21,83 martaga, 6-variantda 10,86 martaga, bodring ildizlarida mos ravishda 10,07 martagacha va 6-variantlarda 12,76 martagacha yuqori akkumulyatsiyalanish kuzatildi. Dala tuproqlarida qo'yilgan laboratoriya tajribasidagi yillar davomida o'rtacha 7-variantda 0,76 mg/kg, 8-variantda esa 0,62 mg/kg, dala tajribasida 0,86 mg/kg va mineral o'g'itlar bilan ishlov berilgan 10-variantda 1,0 mg/kg akkumulyatsiya kuzatildi. Toksikantlar bilan tabiiy va sun'iy ifloslangan tuproqlar tarkibidan Cr element ionlari pomidor poyasida REMdan

5,80 martaga, bodring poyasida esa 7,10 martagacha yuqori va quyidagicha: pomidorda – sun'iy ifloslantirilgan 3-6-variant tuproqlarida 4,10→3,05→3,70→2,65 martaga, dala tuproqlarida 4,60→4,75→4,45→4,45 martaga; bodringda – mos ravishda 2,10→2,40→3,15→3,50 martaga ortgan.

Bodring ekinida 2021-2023-yillar davomida Cr bilan o'rtacha 5 barobar ifloslantirilgan Cr bo'lgan 4-variantda 0,31 mg/kg, REMdan 1,54 martaga ortib bo'ldi. Demak, xrom bilan tuproqlarning 3 va 5 barobargacha ifloslanishi natijasida pomidor mevasida REMdan 1,0 dan 1,60 martagacha, bodring ekinida 1,60 dan 1,80 martagacha yuqori bioakkumulyatsiya kuzatilganligi bois, Cr eng yuqori bioakkumulyatsiya REMlarga ko'ra quyidagicha pasayib boruvchi qatorlarni tashkil etdi: ildiz → poya → barg → meva. Demak, Cr bilan ifloslangan maydonlarda pomidor ekish tavsifiya etilmaydi.

«Nikel elementining pomidor va bodring organlarida akkumulyatsiyasi» deb nomlangan 5.2-§ da pomidor ildizlarida REMdan 10,04-13,60 martagacha ortiq bo'lib, o'rtacha $5,94 \pm 0,89$ mg/kg, 5 barobar ortiq bo'lgan, 4-variantda esa 13,79-16,71 marta faqat pomidorda ortiq bo'lgan bo'lsa, mineral o'g'itlar bilan oziqlantirilgan kompleks 5 va 6-variantlarda bodring ildizlarida REMdan ortiq akkumulyatsiya kuzatildi.




1-rasm. Pomidor va bodring ildizlarida nikel bioakkumulyatsiyasi, (2021-2023-yillar, mg/kg)

Qolgan barcha holatlarda bodring ildizlarida nikel oshishi bilan 4,47-4,50 mg/kg, REMdan 5 marta yuqori ifloslantirilgan, 6-variantda pomidor

ildizlaridan 0,97-1,47-1,65 mg/kg miqdorda kam bioakkumulyatsiya kuzatilib, REMdan 10,81-11,48-10,01 martaga yuqori bo'ldi (1-rasm).


REMDan 5 marta yuqori kompleks ifloslantirilgan 5 va 6 variantlarda nikel akkumulyatsiyasiga salbiy ta'sir etib, yillar davomida 5-variantdan olingan ildizlarda akkumulyatsiyalangan ionlar miqdorining ortib borishi, 3-variantga nisbatan o'rtacha 4,17 martaga, 6 va 4-variantlar solishtirilganda oraliqdagi farq o'rtacha 6,75 martaga kamligi qayd qilindi.

Ildizdan o'tuvchi nikelning poyalarda akkumulyatsiyasi faqat bodringda kuzatildi. 2022-yilda nikel bilan REMdan 3 barobar yuqori ifloslantirilgan variantda 3,41 mg/kg miqdorda akkumulyatsiya kuzatilgan, REMdan 6,82 martaga, REMdan 5 marta yuqori ifloslantirilgan 6-variantda 2021-yilda REMdan 6,31 marta yuqori bo'lgan bo'lsa, keyingi yillarda 3,13-1,94 (o'rta hisobda REMdan 3,79) martaga ko'p Ni akkumulyatsiyasi kuzatildi (2-rasm).



2-rasm. Pomidor va bodring poyalarda nikelning bioakkumulyatsiyasi, mg/kg

Ni bilan REMdan 3 barobar ortiq ifloslantirilgan 3 va 5-variantlarda pomidor mevasida 0,61-0,80 (o'rtacha 0,69±0,10) mg/kg dan 0,50-0,90 (o'rtacha 0,71±0,20) mg/kg atrofida kam akkumulyatsiya kuzatildi (3-rasm).



3-rasm. Pomidor va bodring mevasida 2021-2023-yillar davomida nikel akkumulyatsiyasining o'rtacha hisobida, mg/kg

Dissertatsiyaning «Qo'rg'oshin elementining pomidor va bodring ekinlarida bioakkumulyatsiyasi» deb nomlangan 5.3-§ da Pb akkumulyatsiyasi haqida

bayon etilgan. Pb ionlari pomidor va bodring ildizlarida barcha variantlarda ikkinchi va uchinchi yillarda REMdan 1,02-1,18-1,59 martagacha, mineral o'g'it berilgan 2-variantda esa pomidorda 2021-yilda 1,19 mg/kg dan 2023 yilga kelib 0,66 mg/kg gacha, bodring ildizlarida esa REMdan 1,35-1,85-2,14 martaga ortib borishi kuzatildi.

Dala sharoitida qo'yilgan tajribalarda ham 7-8-variantlar kabi pomidorda 0,69-0,75 mg/kg dan, mineral o'g'itlar qo'llanilgan 2-variantda 0,84-0,55 mg/kg gacha, mos ravishda bodring ildizlarida 0,81-0,43 mg/kg va 10-variantda 0,59-0,94 mg/kg ni tashkil etib, REMdan 3-barobar ortiq bo'lgan 3-variantda 1,99-2,80 mg/kg gacha ortgan. REMdan 3 marta yuqori bo'lgan 5-variantda 0,54-1,30 mg/kg, REMdan 5 martaga ortiq bo'lgan 4-variantda ham yuqori akkumulyatsiya kuzatilib, 3,89-4,44 mg/kg gacha, REMdan 7,78-8,88 martagacha yuqori. 6-variantda ham 4-variantga nisbatan 0,97-2,06 mg/kg ga kam bo'ldi.

«*Mis elementini pomidor va bodring o'simliklari tomonidan o'zlashtirilishi*» deb nomlangan 5.4-§ da Cu ning o'simliklarga akkumulyatsiyasi haqida gapirilgan. Mineral o'g'itlar bilan ishlov berilgan variantlarda Cu ning dala tuprog'idan keltirilgan laboratoriya hamda dala tajribalarida 3-yillikda olingan ildiz massasiga e'tibor qaratisa, pomidorda 7-variantda $3,92 \pm 1,40$ mg/kg dan, kompleks ifloslantirilgan 8-variantda $5,82 \pm 2,14$ mg/kg ga, bodringda esa $3,60 \pm 1,98$ mg/kg dan $3,72$ mg/kg ga ortganligi aniqlandi.

